


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
2019-yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)

Jizzax viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-dekabr oylarida **1932,9** ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 2467,8 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 127,7 %), Arnasoy tumanida 1892,7 ming so'mni (97,9 %), va Baxmal tumanida 1857,4 ming so'mni (96,1 %), Do'stlik tumanida 1794,0 ming so'mni (92,8 %), Zomin tumanida 1780,6 ming so'mni (92,1 %), Sharof Rashidov tumanida 1753,8 ming so'mni (90,7 %), Mirzacho'l tumanida 1698,6 ming so'mni (87,9 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, % da
(2019-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)





Jizzax viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018-yil	2019-yil	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyatida	1535,9	1932,9	125,8
Jizzax shahri	1911,1	2467,8	129,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1432,8	1892,7	132,1
Baxmal	1343,7	1857,4	138,2
G'allaorol	1275,8	1598,4	125,3
Sharof Rashidov	1423,2	1753,8	123,2
Do'stlik	1402,8	1794,0	127,9
Zomin	1401,8	1780,6	127,0
Zarbdor	1495,2	1461,3	97,7
Zafarobod	1257,7	1518,0	120,7
Mirzacho'l	1364,2	1698,6	124,5
Paxtakor	1319,1	1550,5	117,5
Forish	1189,9	1529,0	128,5
Yangiobod	1274,9	1552,1	121,7



Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2104,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 14,9 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1981,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 14,2 % ga oshdi.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2418,5 ming so'mni tashkil qildi va 2018-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 8,5 % ni tashkil qildi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1505,8 ming so'mni tashkil qildi va 2018-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,1 % ga oshdi.



➤ **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2022,8 ming so'm ga to'g'ri keldi va 2018-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 6,6 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4426,3 ming so'mni tashkil qildi va 2018-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 50,8 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1868,5 ming so'mni tashkil qildi va 2018-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 29,5 % ga oshdi.



➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1487,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018- yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 18,5 % ga oshdi. ,




➤ **San'at, ko'ngil ochish va dam olish** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2763,8 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 88,9 % ga oshdi.



➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2006,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 30,2 % ga oshdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2019-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)





Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019-yil 1-sehtabrdan 634880,0 so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(71) 230-83-59